Huquqiy hodisa sifatida huquq manbasini uch xil ma'noda tushunish mumkin: moddiy ma'noda – bu jamiyatdagi mulkchilik shakllari, moddiy shart-sharoitlar, jamiyat a'zolarining qiziqishlari va manfaatlari; mafkuraviy ma'noda – bu turli huquqiy mafkura va ta'limotlar, huquqiy ong; maxsus yuridik ma'noda – bu huquqning shakllari" (Saydullayev, 2021).

Aytish joizki, huquq manbalarini tushunishga qaratilgan olimlarning izlanishlarini ikki yondashuvga ajratish mumkin:

– monistik (bir xil) yondashuv;
– plyuralistik (ko'p xil) yondashuv.

Vaholanki, monistik (bir xil) yondashuv vakillari yetarlicha aniq bo'lmagan "huquq manbalari" iborasidan butunlay voz kechishni yoki uni boshqa atama bilan almashtirishni yoxud ushbu iborani aniq bir ma'noda qo'llashni tavsiya

etishadi. Plyuralistik yondashuv tarafdorlarining fikricha esa aksincha, "huquq manbalari" atamasining serma'noligi bois bu atama juda murakkab va purma'no bo'lgan hodisani o'zida ifodalaydi. Shu bois bu murakkab hodisani biron-bir yagona ibora bilan ifodalab bo'lmaydi.

MDH yuridik adabiyoti doirasida bu masalada izlanish olib borgan olimlar ichida M. Marchenko va uning "Huquq manbalari" nomli o'quv qo'llanmasini alohida ta'kidlash joiz (Marchenko, 2018).

Shu bilan birga, huquq manbalari atamasining sermazmunligi shunda ifodalanmoqdaki, bugungi kunda "huquq manbasi" atamasi bilan juda ko'plab jarayonlar, holatlar, omillar va hodisalar, ular huquq bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lsa, ushbu ibora bilan atalmoqda.

Xo'sh ular sirasiga nimalar kiritilmoqda? Dastavval, huquqni shakllantirish omillari, boshqacha qilib aytganda huquqning dastlabki yoki ijtimoiy manbalarini kiritamiz. Darhaqiqat biron-bir huquq normasi o'z-o'zicha paydo bo'lmaydi, muayyan ijtimoiy munosabatlar hayotga yangi normani "chaqiradi". Misol uchun: O'zbekistonda jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, 2022-yilda aholining 2,3 foizi yoki 845,3 ming kishi rasman nogironligi bor shaxslar deb topilgan. Davlat ushbu toifa shaxslarni ijtimoiy-iqtisodiy, ruhiy jihatdan qo'llab quvvatlash borasida tizimli chora-tadbirlar ko'rib kelmoqda. 2024-yil 5-sentabrda O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ–641-sonli Qonuniga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida O'RQ–955-son Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun bilan qayd etilgan qonunga bunday shaxslarni qo'llash-quvvatlashga, ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan qator yangi normalar kiritildi. Shunday normalardan biri "Odil sudlovdan foydalanish huquqi" deb nomlangan 301-modda bo'lib, unda davlat nogironligi bo'lgan shaxslar uchun boshqalar bilan teng ravishda odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi, shu jumladan, sud protsessining barcha bosqichlarida, shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida nogironligi bo'lgan shaxslarning qonunda belgilangan tartibda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan choralarni ko'rishi mustahkamlab qo'yilgan (Republic of Uzbekistan, 2024).

Yuqorida keltirilgan fikrlardan qanday xulosa chiqarish mumkin? Xulosa shuki, ushbu toifa shaxslar o'z jismoniy holatiga ko'ra ijtimoiy hayotda qatnashishi, hayot kechirishi boshqa insonlardan farq qiladi. Ular davlatning, jamiyat a'zolarining yordamiga, qo'llab-quvvatlashiga muhtoj. Shu bois davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning barcha huquqlarini ta'minlashga muntazam harakat qilib kelmoqda, tegishli huquqiy asoslarni takomillashtirmoqda. Mana shu munosabatlar yuqoridagi yangi normani hayotga "chaqirgan" manbalar hisoblanadi.

Huquq manbalari tushunchasiga ko'p tomonlama yondashuv doirasida uni ma'lum bir davlatda huquq normalarining rasmiy ifodalanish shakli sifatida tushunish ham ancha keng tarqalgan. Masalan, mamlakatimizda bolalar huquqlari kafolatlari Konstitutsiyada, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida mustahkamlab qo'yilgan. Bunday yondashuvda huquq manbalari deb, huquqning rasmiy formal-yuridik manbalari tushuniladi. Haqiqatan, bugungi kunda huquq normasi albatta biron-bir manbada, ya'ni Konstitutsiya, qonunlar, farmonlar, qarorlar kabi normativ-huquqiy hujjatlarda joylashgan bo'ladi.

Bundan tashqari huquq manbalari deganda huquqni tarixiy nuqtayi nazardan bilish, o'rganish manbalari bo'lgan yozma huquqiy manbalar tushuniladi. Masalan, bugungi huquqni chuqur tushunish, uning evolyutsiyasi va ahamiyatini to'g'ri anglashda bizga yozma tarixiy huquqiy yodgorliklarni o'rganish zarur bo'ladi. Masalan, Qadimgi Mesopotamiyada amal qilgan *Ur-nammu qonunlari*, *Xammurapi qonunlari*, *Eshnunna qonunlari* nafaqat o'sha davrda ijtimoiy munosabatlar qanday tartibga solinganligini ko'rsatibgina qolmasdan, balki o'sha hududdagi huquqning rivojlanish ibtidosini, dastlabki "tamal toshlari" haqida bilish manbasi ham hisoblanadi.

Taniqli olim M. Marchenkoning yozishicha, huquq manbalarini quyidagi yo'nalishlarda qarab chiqish kerak:

– etimologik;
– geografik;
– klimatik (iqlim);
– biologik va shu kabilar;
– huquqning tabiiy manbalari;
– sotsiologik;
– siyosiy;


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

– g'oyaviy;
– madaniy va shu kabilar;
– huquqning ijtimoiy manbalari;
– iqtisodiy (huquqning moddiy manbalari);
– falsafiy (huquqning falsafiy manbalari);
– formal-yuridik manbalari (Marchenko, 2018).

Darhaqiqat, yuridik adabiyotda shakllangan amaliyotga asosan huquq manbalarini turli tomonlardan qarab chiqish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, etimologik jihatdan, ya'ni huquq manbasi tushunchasini uning mazmuni haqidagi umumiy tasavvurlar nuqtayi nazaridan qarab chiqishda, manba tushunchasi:

a) "biron-bir narsa va undan nimadir olinadigan"; "biron-bir narsaning boshlanishiga asos bo'ladigan", "tamal toshi qo'yadigan, biron-bir narsaning asosi";

b) "yozma yodgorlik, hujjat bo'lib, uning asosida ilmiy tadqiqot quriladi";

d) "u yoki bu narsani rivojlantirish uchun boshlang'ich joy yoki yondashuv".

Manba atamasining lug'aviy ma'nosini chuqur bilish, bizga huquq manbalarini tushunishda to'g'ri yo'nalish olishga xizmat qiladi, uning mazmun mohiyatini batafsil o'rganish imkonini beradi.

Ikkinchidan, huquq manbasiga tabiiy, ya'ni geografik, klimatik (iqlim), biologik va boshqa omillarning bevosita huquqni yaratish jarayoniga va bilvosita esa – huquqiy ijodkorlik va tegishlicha huquqning o'ziga ta'siri nuqtayi nazaridan qaragan holda tahlil etishda ushbu omillar huquqning tabiiy manbalari sifatida maydonga chiqadi. Ilmiy manbalarda ham tabiiy omillarning huquqiy tartibga solishga ta'siri tahlil etilgan.

Shu o'rinda Sh. Monteskye va uning "Qonunlar ruhi" kitobini eslamaslikning iloji yo'q. Binobarin, buyuk olim ushbu asarida iqlim sharoitining davlat shakliga, huquqqa ta'siri haqida juda qiziqarli mushohada qilgan. Uning fikricha, turli iqlim sharoitlarida insonlarning aqli, xarakteri va qalb ehtiroslari juda xilma-xilligi adolatdan bo'lsa, bu holda qonunlar ushbu ehtiroslar turlichaligi va xarakterlar turfaligiga mos kelishi kerak (Montesquieu, 2019). Ushbu fikrga qo'shilmaslik qiyin, bu fikr bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Uchinchidan, huquq manbasini ijtimoiy, siyosiy, g'oyaviy, madaniy va shunga o'xshash omillarning huquqiy ijodkorlikka va bu jarayon orqali huquqning o'ziga ta'siri sifatida qarash mumkin. Ushbu omillarni ularning ahamiyati va tabiatidan kelib chiqqan holda huquqning ijtimoiy manbasi deb atash mumkin.

Haqiqatan huquqning mazmuniga juda ko'plab omillar ta'sir etadi, shu bois huquq ijtimoiy tus va mazmunga ega. Uning paydo bo'lishi, amal qilishi va rivojlanishi ko'plab ijtimoiy omillarning ta'siri bilan belgilanadi. Bundan tashqari oddiy huquq normasidan tortib, to huquqiy tizimgacha ijtimoiy omillarning ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Masalan, musulmon davlatlarida diniy omilning huquqqa ta'sirini eslash o'rinli yoki totalitar tuzumning ta'siridagi huquqning holatini eng yangi tarixdan yaxshi bilamiz.

To'rtinchidan, huquqning manbasini iqtisodiyot, iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy omillarning roli, ularning huquqqa ta'siri nuqtayi nazaridan tahlil etish mumkin. Aytish joizki, boshqa omillarga nisbatan iqtisodiy omillarning huquqqa ta'siri avvalgi tuzum ilmiy adabiyotida juda keng va batafsil, biroz bo'rttirgan holda tadqiq etilganligini ta'kidlash joiz. Iqtisodiy omillar o'z navbatida huquqning moddiy manbalari sifatida maydonga chiqadi. Iqtisodiy omil huquqqa ta'sir etuvchi omillar ichida muhim o'rin tutadi (Syrykh, 2023). Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki – "huquq manbasi" atamasi kengroq va chuqurroq tushuncha.

Shu bilan birga, Davlat va huquq nazariyasi bo'yicha darsliklarda (milliy va xorijiy, asosan, MDH) ayrimlari ushbu mavzu "huquq shakli", qolganlarida esa "huquq manbasi" deb ketilganligini, ayrim olimlar bu ikki iborani sinonim sifatida ishlatib kelayotganlarini (Syrykh, 2023) ta'kidlash mumkin. Shu munosabat bilan bizning fikrimizcha, "huquq shakli" atamasidan foydalanishga o'tish maqsadga muvofiq, chunki ushbu ibora huquqning qanday tashqi shaklda ifodalanganligini, oddiyroq qilib aytadigan bo'lsak, biron-bir huquq normasi qayerda – normativ-huquqiy hujjatdami, normativ shartnomadami, yoki huquqiy odatdami, sud pretsedentidami joylashganligini ko'rsatadi.

A. Petrov o'zining "Huquq shakli kategoriyasi haqida" nomli ilmiy maqolasida huquq shakli kategoriyasining ishlanganligi haqida fikr yuritib, bu masalaning XIX asrdan to hozirgi kungacha evolyutsiyasini tahlil etadi va oxirida quyidagi

xulosalarni ilgari suradi (Petrov, 2012):

– falsafiy nuqtayi nazardan qaraganda shakl bu – hodisaning mazmunini tashqi ifodalash usuli boʻlib, huquqning mohiyati va mazmuni oʻrtasidagi qonuniy aloqadorlik sifatida qarab chiqilmogʻi kerak;

– huquqning mohiyati nuqtayi nazaridan huquq shakli bu – huquqiy iroda maqsadiga erishiladigan mohiyatning tashqi borligʻi; bu tashqi belgilangan sikl boʻlib, huquqiy irodaning harakati uning boshlanishida tugaydi.

Huquq shakli huquq mazmunining qaysidir alohida elementlarini va huquq mohiyati sifatida huquqiy irodaning harakati bosqichlarini qamrab olmaydi, balki huquqning uzil-kesil shakllangan sifatiga ham mos kelishi kerak.

Oxir-oqibatda huquq shakli bu – huquqiy irodaning yakunlangan siklining mavjudlik vositasi, ijtimoiy borligʻi boʻlib, bunda huquqiy iroda oʻz maqsadlariga huquqning tartiblashgan mazmunining zaruriy elementlari orqali erishadi (Petrov, 2012).

Xulosa sifatida professor A. Saidovning taʼrifiga eʼtibor qaratamiz: “Huquqning manbalari (shakllari) – huquqiy normalarni ifodalashning tashqi shakllari va mustahkamlash usullaridir. Huquqning shakli – huquqning alohida voqelik sifatidagi shakli boʻlib, u faqat huquqning mazmuni bilangina oʻzaro bogʻlanadi. Uning vazifasi huquq mazmunini tartibga solishdan iborat” (Saidov, 2024).

Umuman olganda, qaysi davlatda qanaqa huquq manbalari mavjudligi va ularning oʻzgarib borishi jamiyat, davlat va huquqning qaysi rivojlanish bosqichida ekanligi hamda tegishli huquqiy tizimning xususiyatlariga bogʻliq holda yuz beradi. Shu nuqtayi nazardan olganda roman-german huquqiy oilasi manbalarini tahlil etish muayyan ilmiy qiziqish uygʻotadi. Sababi, birinchidan, ushbu huquq oilasi eng yirik huquqiy oilalardan biri ekanligi boʻlsa, ikkinchidan, milliy huquqiy tizimimiz oʻz parametrlariga ushbu huquqiy oilaga yaqin turadi. Uchinchidan, huquq manbalarining mazmun mohiyatini va ularning har bir huquqiy oilada tutgan chinakam oʻrnini anglash uchun tegishli huquqiy oilaning shakllanish tarixi, xususiyatlari, belgilari hamda oʻziga xos tomonlari haqida yetarli tasavvurga ega boʻlish kerak boʻladi.

Garchi roman-german huquqiy oilasi Yevropada XII-XIII asrlarda Rim huquqi retsepsiyasidan soʻng vujudga kelgan boʻlsa-da, uning ildizlarini qadimgi Bobil, qadimgi Misr, qadimgi Yunoniston hududlarida topish mumkin. Demak, aytish mumkinki, roman-german huquqiy oilasi eng qadimiy huquq oilasi hisoblanadi. Ayni paytda mazkur huquqiy oilaga tamal toshi qadimgi Rim davlatida qoʻyila boshlangan. Qadimgi Rim davlatida dastlab avvalgi kazual xarakterdagi qonunlar oʻrniga, umumiy, mavhum qoidalarni oʻzida jamlagan normativ qoidalar rivojlantirila borgan.

Shu oʻrinda kontinental Yevropa mamlakatlarida roman-german huquqiy oilasi shakllanganiga qadar ijtimoiy munosabatlar qanday tartibga solingan degan savol tugʻilishi tabiiy. Kontinental Yevropa mamlakatlarida turli xil odatlar qoʻllanilib kelingan va ular asta-sekin odat huquqi normalariga aylangan. Bunday huquqni “varvarlar qonunlari” deb ham atashgan.

Yevropada uygʻonish davrida jamiyatda qadimiy qadriyatlarga, merosga qiziqish kuchaygan, shu jumladan, qadimgi Rim huquqiga ham qiziqish ortgan. Dastlabki Yevropa universitetlarida (Ravenna, Bolonya, Neapol, Parij, Anje, Orlean) oʻqitilgan rim huquqi doktrinasi universitet doirasidan chiqib, real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarga tatbiq etila boshlagan. Zero ijtimoiy munosabatlarini tartibga soladigan chinakam vosita sifatida huquqning ahamiyatini jamiyatda tobora chuqur anglab yetishgan. Shu tariqa ushbu huquq oilasi rim huquqi bilan uzviy bogʻliqlikda shakllangan.

Italiya universitetlarida taʼlim olayotgan boshqa Yevropa davlatlari vakillari rim huquqini oʻrganishni oʻzlari uchun sharaf deb bilgan. Keyinchalik rim huquqi boshqa universitetlarda ham oʻzining munosib oʻrnini egallagan. Shu tariqa XII-XVI asrlarda italyan, fransuz va german universitetlarida Yustinian qonunlar toʻplamini oʻrganish asosida shakllangan koʻpchilik Yevropa davlatlari uchun umumiy boʻlgan yuridik fan negizida roman-german huquqiy oilasi vujudga kelgan.

Maʼlumki, Yustinian kodeksi 529–534-yillar davomida vujudga keltirilgan va oʻz ichiga 3 qismni: 1-qism rim imperatorlari farmonlaridan iborat boʻlgan boʻlsa; 2-qism Digesta yoki Pandektlar boʻlib, rim yuristlari ishlaridan havolalar va koʻchirmalardan iborat boʻlgan; 3-qism institutsiya boʻlib, u huquqqa oid darslik boʻlgan. “Novel-

lalar" deb nomlangan 4-qism esa Vizantiya imperatorlarining yangi farmonlarini oʻzida jamlagan va bu qism keyinroq vujudga kelgan (Yarmonova, 2022).

Aytish joizki, Yevropada boʻlib oʻtgan burjua inqiloblari roman-german huquqiy oilasini rivojiga oʻz taʼsirini oʻtkazgan. Zero ushbu siyosiy oʻzgarishlardan soʻng Yevropaning qator davlatlarida, ayniqsa Fransiyada kodekslashtirish jarayonlari faollashganligini taʼkidlash joiz. 1804-yilda qabul qilingan Fransiya fuqarolik kodeksini chindanam ham tarixiy kodeks deyishga arziydi (Logvinova, 2021). Bevosita imperator Napoleon Bonapart ishlab chiqqan va qabul qilingan ushbu kodeks va uning ahamiyati to hozirgi kunga qadar saqlanib qolmoqda. Yoki 1810-yil qabul qilingan jinoyat kodeksi ham koʻpchilik Yevropa va boshqa davlatlar uchun namuna vazifasini oʻtagan.

Bugungi kunda roman-german huquqiy oilasi oʻz ichiga deyarli barcha kontinental Yevropa davlatlari, Lotin Amerikasi hamda Osiyo va Afrikaning qator davlatlari huquqiy tizimlarini oladi. Bundan tashqari, ayrim "huquqiy anklav"lar, jumladan, AQSHning Luiziana va Kanadaning Kvebek shtatlari huquqiy tizimi ham oʻz parametrlariga koʻra roman-german huquqiy oilasiga mansubligini koʻrishimiz mumkin. Bunday holatning vujudga kelishiga sabablardan biri tarixan ushbu hududlar Fransiya kolonizatsiyasi ostida boʻlganligidadir, deyish mumkin. Bugungi kunda Luiziana AQSH, Kvebek Kanada tarkibida boʻlib, ushbu ikki hududning huquqiy tizimi ingliz-sakson huquqiy tizimi ichida oʻziga xos aralash yurisdiksiya sifatida maydonga chiqadi.

Bundan tashqari, bugungi kunda MDH davlatlari huquqiy tizimlari ham oʻz parametrlariga koʻra roman-german huquqiy oilasiga yaqin turadi.

Aytish joizki, roman-german huquqiy oilasini kontinental huquq oilasi, "yozma huquq", shuningdek, sivil (fuqarolik huquqi) huquqi ham deb atashadi. Nemis olimlari ushbu huquqiy oilaning rivojlanishiga katta hissa qoʻshganliklari bois ularning nomi haqli ravishda huquqiy oila nomlanishida aks etgan.

Roman-german huquqiy oilasida huquq manbalarini chuqur tushunish uchun ushbu huquqiy oilaning qanday xususiyatlari borligiga ham eʼtibor qaratishimizni taqozo etadi (Adrianov & Novikov, 2021):

birinchidan, yuqorid a ham taʼkidlaganimizdek, ushbu huquqiy oilaning shakllanish tarixi rim huquqi retsepsiyasi orqali shakllangan;

ikkinchidan, ushbu huquqiy oilada huquqning asosiy manbai normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi;

uchinchidan, ushbu huquqiy oilada huquqning shakllanishida asosiy rol parlament siymosida qonun chiqaruvchiga tegishli boʻladi;

toʻrtinchidan, huquq tizimlari aniq-tiniq huquq tarmoqlariga (sohalariga) ajratilgan boʻladi;

beshinchidan, huquq tizimi ommaviy va xususiyga ajratiladi;

oltinchidan, huquq tizimidagi mavjud qonunchilik hujjatlari ancha faol kodifikatsiyalashgan boʻladi.

Tabiiyki, har bir alohida olingan huquqiy oilani boshqasidan farqlashda, dastlab huquq manbalariga eʼtibor qaratiladi va bu mantiqiydir. Binobarin aynan huquq manbalari huquqiy oilaning xususiyatlarini oʻzida koʻproq ifodalaydi.

Shu maʼnoda roman-german huquqiy oilasida huquq manbalari tizimida normativ-huquqiy aktlar asosiy oʻrin egallaydi.

Normativ-huquqiy hujjat bu tegishli vakolatli davlat organlari tomonidan qonunda belgilangan tartib va asoslarda, tegishli tartib-taomillar orqali qabul qilinadigan, huquq normasini oʻrnatadigan yoki oʻzgartiradigan yoki bekor qiladigan, bajarilishi davlat tomonidan taʼminlanadigan, huquq subyektlari tomonidan bajarilishi majburiy boʻlgan yuridik hujjatdir.

Roman-german huquqiy oilasining asosiy vakillari boʻlgan Fransiya va Germaniya huquq tizimlari huquq manbalariga eʼtibor qaratamiz. Eʼtiborlisi shundaki, bu ikki davlatda norma ijodkorlik jarayoniga turlicha yondashuv shakllangan. Bu holat, maʼlum darajada ushbu davlatlarning davlat boshqaruv shakli xususiyatlari bilan ham bogʻliqdek koʻrinadi.

Gap shundaki, garchi ushbu huquqiy oila doirasida huquq ijodkorlik asosan parlament huquq ijodkorligi sifatida maydonga chiqsa-da, biroq Fransiyada biroz boshqacha holatni kuzatish mumkin. Zero Fransiyada parlament vakolatlari maʼlum darajada cheklangan boʻlib, bu holatni, masalan, qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishda kuzatish mumkin; yoki parlamentning muayyan qonunni qabul qilish faoliyati aniq muddatlar bilan cheklangan boʻlib, mabodo

parlament ushbu muddatda tegishli qonunni qabul qilishga ulgurmasa, bu holda hukumat dekret-qonun chiqarish vakolatiga ega.

Germaniya boshqaruv shakliga koʻra parlamentar respublika boʻlganligi bois siyosiy tizimda parlamentning oʻrni ancha nufuzli, hukumatga parlamentning taʼsiri ham juda sezilarli. Germaniya hukumatida (Fransiya hukumatidan farqli oʻlaroq) dekret-qonunlar qabul qilish vakolati yoʻq, asosiy huquq ijodkorlik vakolati parlamentda jamlangan. Shu oʻrinda roman-german huquqiy oilasida huquq manbalari tizimida normativ-huquqiy hujjatlardan tashqari yana qanday huquq manbalari mavjud, degan masala koʻndalang boʻladi.

Taʼkidlash joizki, ayrim olimlar huquqning umumiy prinsiplarini ham huquq manbasi sifatida eʼtirof etishadi. Bunday yondashuv bejiz emas albatta. Masalan, Fransiyada huquqni qoʻllash amaliyotida huquqdagi boʻshliqlarni hal etishda huquq prinsiplaridan foydalanishadi, sudlar koʻpincha oʻz qarorlarida huquqning umumiy prinsiplariga havola qilishadi; bundan tashqari Fransiyada ijro etuvchi organlar ham (masalan, Davlat Kengashi) huquq prinsiplarini qoʻllashadi.

Taniqli fransuz kamparativisti Rene David taʼkidlaganidek, rim huquqining muhim manbalari boʻlib, ish odatlari-qoidalar hisoblanib, ular konsullar, pretorlar va boshqa mansabdor shaxslarning kundalik ish faoliyati jarayonida ishlab chiqilgan va shakllantirilgan. Roman-german huquqiy tizimi uchun esa huquqiy doktrina XVII – XIX asrlarda muhim huquq manbasi hisoblangan.

Shu oʻrinda taʼkidlash kerakki, huquq shakllarining u yoki bu turi turli davrlarda turlicha ahamiyat kasb etgan, ayrimlari qadimda, boshqalari oʻrta asrlarda, yana boshqalari esa yangi tarix davrida yangicha mazmun kasb etgan. Jumladan, huquqiy tizimlarda ayrim huquq shakllari hatto yoʻq boʻlib ketgan boʻlsa, qonun, huquqiy odat, pretsedentlar qadim vaqtlardan beri to hozirgi kungacha rivojlanib, mazmunan boyib kelmoqda. Yana boshqa huquq shakllari oʻz amaliy ahamiyatini yoʻqotib, tarixiy qadriyat sifatida saqlanib qolgan, xolos. Tarixdan bilamizki, bir paytlar rim yuristlarining yozgan yoʻl-yoʻriqlari sudlar uchun majburiy ahamiyatga ega boʻlib, de fakto qonun kuchiga boʻlgan (David, 1998).

**Jadval**

**Huquq manbalari**

| Huquq manbasi | Shakllanish vaqti | Ifodalanish shakli | Harakat doirasi yoki manbalar tizimida tutgan oʻrni | Izohlar |
|---|---|---|---|---|
| Huquqiy odat | Qadimgi davr | Yozma shaklda | Qadimda harakat doirasi keng boʻlgan, hozirda birmuncha esa kamaymoqda | Milliy qonunchilikda OʻzR FKning 6-moddasi, OʻzR OKning 8-moddasi, MKning 208-moddasi (ishlanmaydigan bayram kunlari) |
| Sud pretsedenti | XVII–XVIII asrlar | Sud qarorlari | Anglo-sakson huquqiy oilasiga mansub davlatlarda ahamiyatini saqlab qolmoqda | Sud pretsedenti roman-german huquqiy oilasiga mansub davlatlar huquqiy tizimlarida garchi rasman eʼtirof etilmasa-da, biroq “de facto” YEI sudi amaliyoti orqali asta-sekin kirib kelmoqda |
| Normativ-huquqiy hujjatlar | Davlat va huquq paydo boʻlishi bilan | Yozma shaklda | Muhim munosabatlarni tartibga soluvchi manba sifatida ahamiyati ortmoqda | NHHning ijtimoiy munosabatlarni aniq tartibga soluvchi vosita sifatidagi ahamiyati nafaqat RGHO, balki ISʼHO da oshmoqda |
| Normativ shartnomalar | XVII–XVIII asrlar | Yozma shaklda | Globallashuv sharoitida xalqaro munosabatlarning kengayishi bois ahamiyati ortmoqda | Koʻpchilik olimlar normativ shartnomalarga xalqaro shartnomalardan tashqari, jamoat shartnomasini ham kiritishadi |
| Huquqiy doktrinalar | XVII–XVIII asrlar | Ilmiy manbalarda va qonunchilikda | Angliya sud tizimi amaliyotida biroz saqlangan | Manbalarda yozilishicha, Angliyada sudlar ishlarni koʻrishda nufuzli olimning fikriga tayanib, oʻz qarorini asoslashi mumkin |


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

| Huquq manbasi | Shakllanish vaqti | Ifodalanish shakli | Harakat doirasi yoki manbalar tizimida tutgan oʻrni | Izohlar |
|---|---|---|---|---|
| Diniy matnlar | Qadimgi davr | Diniy muqaddas kitoblarda | Teokratik davlatlarda saqlangan | Huquqiy tizimi shariat normalariga asoslangan musulmon davlatlarida hamda ayrim teokratik davlatlar amaliyotida qisman, ayrimlarida toʻliq qoʻllaniladi |
| Huquq prinsiplari | XVII–XVIII asrlar | Ilmiy manbalarda va qonunchilikda | Barcha huquqiy oilalarda, u yoki bu tarzda, IS'HOda koʻproq, harakat qiladi | Huquq prinsiplari milliy huquqiy tizimda huquq manbasi sifatida doktrinada rasman e'tirof etilmasa-da, sud va boshqaruv amaliyotida, huquq subyektlari faoliyatida rioya etiladi |

**Muhokama**

Aytish joizki, ilmiy va oʻquv adabiyotlarida huquq shakllari (manbalari)ning turlari masalasida ham fikrlar turlichaligiga duch kelamiz. Shunga bogʻliq holda bir nechta oʻquv va ilmiy adabiyotlarga bir nazar tashlash ma'qul. Professor Z. Islomovning "Davlat va huquq nazariyasi" darsligida huquq shakllari (manbalari)ning quyidagi turlari koʻrsatilgan: 1) urf-odatlar; 2) sud pretsedenti; 3) normativ-mazmundagi shartnomalar; 4) normativ-huquqiy hujjatlar (Islomov, 2007).

Professor V. Sirix muharrirligida chop etilgan "Davlat va huquq nazariyasi muammolari" darsligida huquq manbalarining quyidagi turlari ajratib koʻrsatilgan: 1) normativ-huquqiy hujjatlar; 2) huquqiy odatlar; 3) normativ shartnomalar; 4) sud pretsedenti (Syrykh, 2023).

Professor X.T. Odilqoriyevning "Davlat va huquq nazariyasi" darsligida huquq shakllari (manbalari)ning quyidagi turlari koʻrsatilgan: 1) huquqiy odat; 2) yuridik pretsedent; 3) normativ-huquqiy hujjat; 4) normativ shartnomalar (Odilqoriyev, 2018).

Professor Sh.A. Saydullayevning "Davlat va huquq nazariyasi" darsligida huquq shakllari (manbalari)ning quyidagi turlari koʻrsatilgan: 1) huquqiy odat; 2) huquqiy pretsedent; 3) normativ-huquqiy hujjat; 4) normativ shartnomalar (Saydullayev, 2021).

Qozogʻistonlik nazariyotchi olimlar tomonidan chop etilgan kitobda ham huquq shakllari (manbalari) sifatida yuqorida qayd etilgan toʻrtta shakl koʻrsatilgan (Ibrayeva & Sartayev, 2017). A.N. Golovistikova va I.A. Dmitriyevlarning darsligida huquq shakllari (manbalari)ning quyidagi turlari koʻrsatishgan: sud pretsedenti; diniy matnlar; huquqning umumiy prinsiplari; huquqiy odat; normativ shartnoma; doktrinal matnlar; normativ-huquqiy aktlar (qonunlar va qonun osti aktlari) (Golovistikova & Dmitriev, 2014).

Professor V.B. Isakovning "Davlat va huquq nazariyasi" darsligida huquq shakllari (manbalari)ning quyidagi turlari koʻrsatilgan: normativ-huquqiy hujjat; pretsedent; normativ shartnoma; huquqiy odat; huquqiy doktrina (Isakov, 2020).

Bu joyda mualliflarning huquq manbalari roʻyxatini qoʻllanish doirasi koʻlamiga qarab joylashtirishganligini koʻrishimiz mumkin. Agarda ularni paydo boʻlish xronologiyasiga qarab joylashtirganda, huquqiy odat roʻyxatning boshida boʻlgan boʻlar edi.

**Xulosa**

Huquq shakllari haqidagi ilmiy qarashlar uzoq davom etgan munozaralarga qaramasdan, hozirgi kunda ham bu masalada umumiy fikrlilik kuzatilmaydi. Hanuzgacha, fanda ham, oʻquv adabiyotlarida ham ushbu huquqiy hodisa turlicha ifodalanishda davom etmoqda, bu holat olimlar oʻrtasida umumiy fikrga kelishni taqozo etadi. Shu maqsadda fanda "Huquq shaklimi yoki manbasi?" nomli ilmiy munozara oʻtkazilib, natijada umumiy bir kelishuvga erishish nafaqat fan, balki oʻquv maqsadlariga ham xizmat qilgan boʻlar edi.

1. Milliy huquqiy fanda huquq shakllari mavzusi yetarlicha tadqiq etilmagan. Ayniqsa Chor Rossiyasi mustamlakasigacha boʻlgan davrlarda huquq manbalariga oid tadqiqotlar yetarli emas. Qardosh Qozogʻiston yuridik fanida odatlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi oʻrni va roli tarixiy jihatdan tadqiq etilgan izlanishlar koʻpligi, bizda ham shunday tadqiqotlarga boʻlgan ehtiyojni oʻzida aks ettiradi.

2. Milliy huquqiy fanda nafaqat huquqning asosiy manbalari, balki boshqa huquqiy doktrina, huquq prinsiplari, diniy matnlarning huquq manbasi sifatidagi oʻrni va roliga bagʻishlangan ilmiy izlanishlar deyarli yoʻq, zamonaviy dunyoda munosabatlarni tartibga solishda va sud amaliyotida huquq prinsiplarining roli oshib borayotganligini e'tiborga olgan holda bunday tadqiqotlarni ham koʻpaytirish zarurati mavjud.

Garchi milliy huquqiy tizimimiz oʻz parametrlariga koʻra roman-german huquqiy oilasiga yaqin tursa-da, dunyoda kechayotgan integratsiya jarayonlari, investitsiya sohasidagi siyosat, bu boradagi xalqaro tajriba ingliz-sakson huquqiy oilasi ta'sirini kuchaytirmoqda. Gʻarbdan kirib kelayotgan investitsiya va investorlar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida, xuddi Qozogʻistondagi kabi mamlakatimizda xalqaro moliyaviy tuzilmalar tashkil etilib, unga zarur hollarda Uels va Angliya huquqini qoʻllash vakolati berilayotganligi huquq manbalari tizimini globallashuv jarayonlari cheklab oʻtmayotganligini, shu bois, ushbu murakkab masalaning ilmiy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish zaruratini kun tartibiga qoʻymoqda.

## REFERENCES


Adrianov, V. A., & Novikov, P. D. (2021). Istochniki romano-germanskogo prava. Rol sudov v razvitii sovremennogo romano-germanskogo prava [Sources of Romano-Germanic law. The role of courts in the development of modern Romano-Germanic law]. *International Journal of Humanities and Natural Sciences, 57*(6-2), 113–117. https://cyberleninka.ru/article/n/istochniki-romano-germanskogo-prava-rol-sudov-v-razvitii-sovremennogo-romano-germanskogo-prava

David, R. (1998). *Osnovnye pravovye sistemy sovremennosti (sravnitelnoe pravo)* [Major legal systems in the world today: Comparative law]. Progress. https://imobook.ru/book/mezhdunarodnoe-pravo/osnovnye-pravovye-sistemy-sovremennosti

Golovistikova, A. N., & Dmitriev, Yu. A. (2014). *Teoriya gosudarstva i prava* [Theory of state and law]. URSS. https://urss.ru/images/add_ru/193290-1.pdf

Golovistikova, I. A., & Dmitriev, Yu. A. (2005). *Problemy teorii gosudarstva i prava* [Problems of the theory of state and law]. https://www.at.alleng.org/d/jur/jur752.htm

Ibrayeva, A. S., & Sartayev, S. A. (2017). *Teoriya gosudarstva i prava* [Theory of state and law]. Seven Charter.

Isakov, V. B. (Ed.). (2020). *Teoriya gosudarstva i prava* [Theory of state and law]. Norma.

Islomov, Z. M. (2007). *Davlat va huquq nazariyasi* [Theory of state and law]. Adolat.

Logvinova, I. V. (2021). Kodeks Napoleona 1804 goda: istoriko-pravovaya kharakteristika [The Napoleon Code of 1804: Historical and legal characteristics]. *Locus: People, Society, Cultures, Meanings, 12*(3), 77–86. https://cyberleninka.ru/article/n/kodeks-napoleona-1804-goda-istoriko-pravovaya-harakteristika

Marchenko, M. N. (2018). *Istochniki prava* [Sources of law]. Norma. http://lawlibrary.ru/izdanie51522.html

Montesquieu, C. L. de S. (2019). *O dukhe zakonov* [The spirit of laws]. LitRes. https://www.litres.ru/book/sharl-monteske/o-duhe-zakonov-43135312/

Odilqoriyev, X. T. (2018). *Davlat va huquq nazariyasi* [Theory of state and law]. Adolat.

Petrażycki, L. I. (2019). *Teoriya prava i gosudarstva v svyazi s teoriey nravstvennosti* [Theory of law and the state in connection with the theory of morality]. Yurait. https://urait.ru/book/teoriya-prava-i-gosudarstva-v-svyazi-s-teoriey-nravstvennosti-v-2-ch-chast-1-437526

Petrov, A. V. (2012). O kategorii formy prava [On the category of the form of law]. *Bulletin of the N. I. Lobachevsky University of Nizhny Novgorod, 5*(1), 245–251. https://cyberleninka.ru/article/n/o-kategorii-formy-prava/viewer

Pratsko, G. S. (2021). *Teoriya gosudarstva i prava* [Theory of state and law]. RIOR. https://riorpub.com/ru/storage/download/80956

Republic of Uzbekistan. (2024, September 5). *On the rights of persons with disabilities (Law No. LRU-955).* Lex.uz. https://lex.uz/ru/docs/7093722

Saidov, A. Kh. (2024). *Davlat va huquq nazariyasi* [Theory of state and law]. Ziyo-Nashr-Matbaa.

Saydullayev, Sh. A. (2018). *Davlat va huquq nazariyasi* [Theory of state and law]. Adolat.

Saydullayev, Sh. A. (2021). *Davlat va huquq nazariyasi* [Theory of state and law]. TSUL Publ.

Syrykh, V. M. (2023). *Teoriya gosudarstva i prava* [Theory of state and law]. MyBook. https://mybook.ru/author/v-m-syryh/teoriya-gosudarstva-i-prava-uchebnik-dlya-vuzov/read/

Syrykh, V. M. (Ed.). (2018). *Problemy teorii gosudarstva i prava* [Problems of the theory of state and law]. E-Univers. https://e-univers.ru/upload/iblock/266/b8gy99obwnvi2dt7wona8zney6cjdfee.pdf

Yarmonova, E. V. (2022). Osobennosti istochnikov prava v romano-germanskoy pravovoy semye [Features of sources of law in the Romano-Germanic legal family]. *International Journal of Humanities and Natural Sciences, 3*(3), 114–116. https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-istochnikov-prava-v-romano-germanskoy-pravovoy-semie

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

**2026-yil maxsus son**

VOLUME 10 / SPECIAL ISSUE / 2026
DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.SI.